

XORAZM VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT

2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-aprel holatiga Xorazm viloyatining doimiy aholisi soni 2 075,0 ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 1,7 foizga ko'paygan. 2026-yil yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni 9,2 ming nafarni, vafot etganlar 2,4 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish 6,8 ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni 11 kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni 22 kishini, qayd etilgan nikohlar 3,7 mingtani, nikohdan ajralishlar 0,6 mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	2 075,0	<i>ming kishi</i>
Tug'ilganlar soni	9,2	<i>ming kishi</i>
Vafot etganlar soni	2,4	<i>ming kishi</i>
Xorijdan ko'chib kelganlar	11	<i>kishi</i>
Xorijga ko'chib ketganlar	22	<i>kishi</i>
Nikohlar soni	3,7	<i>ming birlik</i>
Nikohdan ajralishlar soni	0,6	<i>ming birlik</i>

Doimiy aholi soni


Xorazm viloyatida doimiy aholi soni 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra **2 075,0** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **35,4** ming kishiga yoki **1,7** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **681,6** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **32,8%**), qishloq joylarda esa **1 393,4** ming kishi (**67,2%**) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 035,5** ming kishini (**49,9%**), erkaklar esa **1 039,6** ming kishini (**50,1%**) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	2 039,6	2 075,0	101,7
Urganch sh.	156,1	157,8	101,1
Xiva sh.	100,3	101,9	101,6
Bog'ot	180,2	183,3	101,7
Gurlan	160,5	163,0	101,6
Qo'shko'pir	185,8	188,9	101,7
Urganch	219,7	225,0	102,4
Hazorasp	210,8	214,9	101,9
Tuproqqal'a	60,9	62,1	102,0
Xonqa	202,6	205,9	101,6
Xiva	158,8	161,6	101,8
Shovot	184,2	187,3	101,7
Yangiariq	125,5	127,6	101,7
Yangibozor	94,2	95,7	101,6

Xorazm viloyatida 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **343** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **6** kishiga ortgan (2025-yil 1-aprel holatiga 1 kv.km.ga **337** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




Tug‘ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tug‘ilganlar soni **9,2** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **18,0** promilleni tashkil etdi. Tug‘ilganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,3** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **2,4** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,2** ming nafarga ko‘paygan.


Tug‘ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatda tirik tug‘ilganlar soni **9,2** ming kishini, shundan o‘g‘il bolalar soni **4,7** ming kishini (jami tug‘ilganlar soniga nisbatan **51,1%**), qiz bolalar soni **4,5** ming kishini (**48,9%**) va shahar joylarida **3,2** ming kishini (**34,8%**), qishloq joylarida **6,0** ming kishini (**65,2%**) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **2,4** ming kishini, shundan erkaklar **1,4** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **58,3%**), ayollar **1,0** ming kishini (**41,7%**) va shahar joylarida **1,1** ming kishini (**45,8%**), qishloq joylarida **1,3** ming kishini (**54,2%**) tashkil qildi.

Tug‘ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo‘yicha taqsimlanishi, ming kishi




Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni 3,7 ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti 7,3 promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,8 ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni 0,6 ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etdi.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni 3,7 ming birlikni, shundan shahar joylarida 1,2 ming birlikni (32,4%), qishloq joylarida 2,5 ming birlikni (67,6%) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni 0,6 ming birlikni, shundan shahar joylarida 0,3 ming birlikni (50,0%), qishloq joylarida 0,3 ming birlikni (50,0%) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



Aholi migratsiyasi


2026-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni 3 833 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar 3 822 kishini, xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar 11 kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **4 792** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **4 770** kishini, xorijiy davlatlarga ko'chib ketganlar **22** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	<i>shundan:</i>		Jami	<i>shundan:</i>	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Xorazm viloyati	3 833	3 822	11	4 792	4770	22
Urganch sh.	863	858	5	1 322	1317	5
Xiva sh.	309	308	1	353	352	1
Bog'ot	95	95	-	134	134	-
Gurlan	87	87	-	231	231	-
Qo'shko'pir	150	150	-	285	284	1
Urganch	1 116	1114	2	746	744	2
Hazorasp	177	176	1	359	358	1
Tuproqqal'a	196	195	1	184	181	3
Xonqa	124	123	-	246	246	-
Xiva	341	341	-	394	388	6
Shovot	135	134	1	233	230	3
Yangiariq	127	126	-	154	154	-
Yangibozor	113	113	-	151	151	-

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylar (ovullar, qishloqlar va boshqalar)da istiqomat qiluvchi aholi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot davrida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot davrida jami o'lganlar sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDIYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikoh koeffitsiyenti – hisobot davrida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot davrida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.